



BADIY ASARLARDA TAGMA'NO HODISASINING NAMOYON BO'LISHI.

Yuldasheva Hadiyaxon

*FarDu magistratura bo'limi lingvistika: o'zbek tili yo'naliши
2-kurs magistranti*

Matn yoki nutqning mazmuniy strukturasi uning tarkibiga kiruvchi elementlarning funksional xususiyatlari bilan belgilanadi. Shuning uchun ham nutq yoki ifodaning mazmuni va mazmuniy sathdagi bir-biridan o'zaro farqlanuvchi birliklar matnning uslubiy xoslanishi bilan o'zgara boshlaydi. Matnning mazmuniy sathiga mansub bo'lgan propozitiv, presupozitiv, tagma'no va inferensiya kabi birliklar ham o'zida uslubiy xoslanish shaklini namoyon etadi. Matnning uslubiy-funksional xoslanishi to'g'risida so'z yurita turib, "*Tagma'no barcha uslub matnlari mazmuniy strukturasida ham birdek mavjud bo'ladimi?*", degan savolning qo'yilishi tabiiy. Aniqroq qilib aytildigan bo'lsa, badiiy, ilmiy, rasmiy, publisistik, diniy, so'zlashuv kabi uslub matnlarida mazkur hodisa birdek namoyon bo'ladimi yoki tagma'no hodisasi nutqning uslubiy-funksional turlarida farqlanadimi tarzidagi mulohazalarning tug'ilishi tabiiydir.

Aynan bu masala yuzasidan ko'pchilik tilshunoslar tomonidan: "...tagma'no faqat badiiy matnga xos ifoda formasi"²²dir, degan fikr e'tirof etiladi. Biz ham bu fikrga qo'shilgan holda, tagma'no boshqa uslub matnlarida ham o'ziga xos tarzda qo'llanishini bemalol ayta olamiz. Biroq badiiy matnni tagma'no va boshqa implikativ hodisalarsiz tasavvur etib bo'lmasligiga alohida urg'u beramiz. Shuning uchun ham badiiy matnda fikrlarni implitsitlashtirish hodisalari matn tilshunosligi uchun kategorial xususiyatga egaligini alohida ta'kidlaymiz.

Biz ham tagma'noni badiiy matnga xos bo'lgan hodisa ekanligiga e'tiroz bildirmagan holda, unga xos xususiyatlar haqida o'z fikr-mulohazalarimizni bildiramiz. Jumladan, tagma'no matn yoki nutqning mazmuniy sathiga oid hodisa, u matn mazmuniy sathida verbal vositalar bilan to'g'ridan-to'g'ri ifodalanganmaydi. Aksincha, gap yoki matn propozitsiyasi tagma'noga ishora qiladi. Shuning uchun ham matnning umumiylaridan tagma'noga xos bo'lgan fikrlarni ajratib olish muhim va bu ish murakkab hisoblanadi. Biroq tagma'no orqali ifodalangan fikrlarni muloqot jarayonida idrok qilish murakkablik tug'dirmaydi. Sababi kommunikatsiya jarayonida nutqni idrok qilish bilan bog'liq lisoniy va nolisoniy omillar implikatsiyalangan fikrlarni anglashga yordam beradi.

²² Затонский Д. В. Художественные ориентиры XX века. – М.: Сов. писатель, 1988. – С.52.



Fikrlar implitsitlashishi yuzasidan olib borilgan tadqiqot xulosalariga ko‘ra, kommunikatsiya ishtirokchilari o‘zaro muloqot jarayonida propozitiv mazmuniy strukturadan o‘zlariga tegishli bo‘lgan yashirin fikrlarni implitsit bilimlar asosida ajratib oladilar. Kommunikantlar tafakkuridagi invariant bilim, ma’no va fikrlar muloqot jarayonida assotsiatsiyalanayotgan tematik mundarija bilan o‘zaro qiyoslanadi. Demak, kommunikatsiya jarayonidagi nutq predmeti haqidagi mazmun kommunikantlar tasavvuridagi konseptual bilimlar yordamida tasdiqlanadi yoki inkor etiladi.

Har qanday matnda muallif tafakkuriga xos fikrlar o‘z ifodasini topadi, bu fikrlar oshkora yoki yashirin mazmuniy sathda beriladi. Tinglovchi ham ana shu fikrlarni o‘z bilimlari yordamida anglaydi, aytilayotgan fikrlarni tosh-taroziga soladi, ayrim holatlarda bu fikrlarning mantiqiy asoslashga harakat qiladi. Muallif bilan o‘zaro ichki dialogga kirishadi. Asosli fikrlardan qoniqish hosil qiladi. Ishonchsiz fikrlarga e’tiroz bildiradi. Bunday jarayon har qanday matn yoki nutqda yuz beradi. Bu esa o‘z navbatida har qanday matnda ham oshkora fikrlar bilan birga yashirin fikrlar ham u yoki bu darajada o‘z ifodasini topadi degan fikrni aytishga asos bo‘ladi. Badiiy matn muallifi yoki kommunikatsiya ishtirokchilari bilan muloqotga kirishish jarayonida yuz berayotgan fikrlardan qoniqish, ulardan zavqlanish, ayrim fikrlardan qoniqmaslik, ayrim mantiqsiz jumlalardan diqqat bo‘lish, ayrim fikrlarga jiddiy e’tiroz bildirish kabi mazmuniy strukturalar badiiy matnga oid bo‘lgan modus kategoriyasini tashkil qiladi.

Matn mazmuniy sathida fikrlarning eksplitsit yoki implitsit ifodalanishi muallif kommunikativ maqsadi asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham matnning mazmuniy sathida muallif fikrlari va uning ifodalanish darajasi turlicha bo‘ladi. Masalaga bunday yondashuv asosida aytish mumkinki, tagma’nuning har qanday matnda mavjud bo‘lishi va u muallifning kommunikativ maqsadi asosida u yoki bu darajada namoyon bo‘lishi mumkin. Bu masala bo‘yicha fikrimizni davom ettirgan holda, fikrni matn ortiga yashirish, tagma’no orqali ifodalash yoki tagma’no qilib gapirish faqat badiiy matnga xos, boshqa matn turlarida fikrni implitsitlashtirish, xususan, uning alohida turi hisoblangan tagma’no hodisasi boshqa matnlarda uchramaydi, degan qarash noto‘g‘ridir.

Matn muallifi xabar va axborotni ifodalashga xizmat qiluvchi fikrlarni matnning mazmuniy sathiga joylashtirar ekan, bunda u nazarda tutilgan ayrim fikrlarni verbal maqomga ega bo‘lmagan tagma’no shakliga joylashtiradi. Ushbu hodisa matn mazmuniy sathiga tegishliligi haqidagi fikrlarga asoslanib, u boshqa uslub matnlariga nisbatan badiiy matnda muallifning poetik tafakkuriga bog‘liq holda so‘zlovchining o‘ziga xos kommunikativ maqsadini ifodalashga xizmat qilishini ta’kidlash o‘rinlidir.





Har qanday matn yoki nutq turi uslubiy-funksional xususiyatlariga ko‘ra u yoki bu uslubga tegishli bo‘ladi, degan fikrlar barcha uslubshunoslar tomonidan e’tirof etilgan. Bu masala bo‘yicha izlanish olib borgan mualliflar har bir uslubga xos xususiyat va belgilar mavjudligini alohida ko‘rsatib o‘tadilar. Biroq hozirgi o‘zbek adabiy tilining barcha stillariga oid qarashlar²³da fikrning tagma’no shakli masalasiga e’tibor qaratilmaydi. Matnning mazmuniy sathiga tegishli tagma’noning turli uslubga oid matnlardagi ifoda shakli haqida so‘z yuritilmaydi. Hamma uslub matnlarida ham tagma’no maqomiga ega bo‘lgan hodisani kuzatish mumkin yoki mumkin emasligi to‘g‘risida fikrlar bildirilmaydi.

²³ Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек тилининг илмий стили. – Тошкент: Фан, 1984; Бабаханова Д.А. Официально-деловой стиль современного узбекского языка: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1987, Бабаханова Д.А. Официально-деловой стиль современного узбекского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1987; Курбанов Т.И. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1987; Ўринбоев Б. Ўзбек сўзлашув нутқи синтаксиси. – Самарқанд, 2009; Каримов С. Ўзбек тили функционал стилистикаси. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2010; Юсупова Ш. Диний матн pragmatikasi. – Фарғона: Classic, 2020; Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish: amaliy qo’llanma. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 528 b.

